



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 100-104 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SAVDO KORXONALARIDA MOLIYAVIY HOLAT TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI VA KO'RSATKICHLAR TAHLILI



Zokirova Nargiza Ibaydulla qizi

Izlanuvchi, Ipoteka bank OTP Group xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada savdo korxonalarida moliyaviy holat tahlilining nazariy asoslari va ko'rsatkichlar tahlili yoritilgan. Moliyaviy holat tahlili tushunchasiga iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari tomonidan berilgan ta'riflar va yondashuvlar tadqiq qilingan. Moliyaviy holat tahlilining yo'nalishlari, asosiy elementlari, usullari, ko'rsatkichlari o'rganilgan. "Parkent universal savdo kompleksi" Ajda moliyaviy ko'rsatkichlar holati tahlil qilingan va xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: savdo korxonalari, moliyaviy holat, moliyaviy holat tahlili, nazariy asoslari, moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы анализа финансового состояния и анализа показателей деятельности торговых предприятий. Изучаются определения и подходы к понятию анализа финансового состояния, предложенные экономистами и отраслевыми специалистами. Изучаются направления, основные элементы, методы и показатели анализа финансового состояния. Проанализировано состояние финансовых показателей АО «Паркентский универсальный торговый комплекс» и сделаны выводы.

Ключевые слова: торговые предприятия, финансовое состояние, анализ финансового состояния, теоретические основы, анализ финансовых показателей.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of financial analysis and performance analysis for retail enterprises. It explores definitions and approaches to the concept of financial analysis proposed by economists and industry experts. It examines the areas, key elements, methods, and indicators of financial analysis. The financial performance of Parkent Universal Shopping Mall JSC is analyzed, and conclusions are drawn.

Keywords: retail enterprises, financial condition, financial analysis, theoretical foundations, financial performance analysis.

Kirish. Savdo korxonalari iqtisodiyotning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, ular faoliyati natijasida mamlakat ichki bozorini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat tovarlari, xizmatlar bilan ta'minlaydi. Moliyaviy holat esa har qanday korxonaning samarali ishlashi, uning rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashda asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Ayniqsa, savdo sohasida moliyaviy holatning doimiy tahlili korxona rahbariyatiga o'z faoliyatini to'g'ri yo'naltirish, resurslarni samarali taqsimlash hamda bozor sharoitlariga moslashishda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy holat tahlili bu korxonaning moliyaviy faoliyat natijalarini o'rganish va baholash jarayoni bo'lib, unda moliyaviy hisobotlar, ko'rsatkichlar va ularning o'zaro bog'liqligi chuqur tahlil qilinadi. Savdo korxonalarida moliyaviy holatning nazariy asoslarini bilish va ularni amaliyotga tatbiq etish, biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Moliyaviy holat bu korxonaning moliyaviy barqarorligi, aktivlari, majburiyatlari va o'z kapitalining umumiy holatini ifodalaydigan ko'rsatkichlar majmuasidir. Savdo korxonalarida moliyaviy holat ko'rsatkichlari uning bozor raqobatbardoshligi, to'lov qobiliyati, investitsion jozibadorligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda xizmat qiladi.

Metodlar va materiallar. Savdo korxonalarida moliyaviy holat tahlilining nazariy asoslari va ko'rsatkichlar tahliliga bagishlangan ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda iqtisodiy kuzatish, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Moliyaviy holat tahlili tushunchasiga bir qator olimlar tomonidan mazmunan bir-biriga yaqin turli yondashuv va fikr-mulohazalar berilgan.

Jumladan, respublikamiz iqtisodchi olimi M. Raximovning fikricha, "Moliyaviy tahlil maqsadi - firma va kompaniyalar moliyaviy holatini, moliyaviy natijalari, pul oqimlarini moliyaviy hisobot ma'lumotlarida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan davriy o'rganishdan iborat" [1].

Respublikamizning etuk soha mutaxassislaridan biri, professor M.Q.Pardayevning ta'kidlashicha, "moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari guruhi kompaniya egalari va kreditorlar o'rtasidagi tavakkalchilikning qanday taqsimlanganligini ko'rsatadi. Unda moliyaviy qaramlik va moliyaviy mustaqillik, aktivlarning qaramlik koeffitsiyenti, foizni qoplash koeffitsiyenti kabi koeffitsiyentlardan foydalanish taklif qilingan" [2].

Xorijlik iqtisodchi olimlar E.A.Markaryan va G.P.Gerasimenko bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Korxonaning moliyaviy holati uning qarz majburiyatlarini to'lash qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar yig'indisidir" [3].

Xorijlik soha mutaxassislari A.I.Kovaleva va V.P.Privalovlar tomonidan "Korxonaning moliyaviy holati" tushunchasi ancha qisqa ta'rif berilgan. Ular buni "moliyaviy resurslarning mavjudligi, joylashishi va ishlatilishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar to'plami" [4] deb tushuntirishgan.

Chet ellik iqtisodchi olim O.V.Grishchenko quyidagi ta'rifni beradi: "Korxonaning moliyaviy holati moliyaviy faoliyat natijasidir. U korxona mablag'larining hajmi, ularni joylashtirish va daromad manbalari bilan tavsiflanadi" [5].

Xorijlik professor G.V.Savitskaya quyidagi ta'rifni beradi: "Tashkilotning moliyaviy holati - bu kapitalning aylanish jarayonidagi holatini va xo'jalik yurituvchi sub'ektning belgilangan vaqtda o'z faoliyatini moliyalashtirish qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi" [6].

Xorijlik iqtisodchi olim A.I.Goncharovning ta'kidlashicha, "moliyaviy holat moliyaviy tahlilning maqsad qo'yuvchi xususiyati bo'lib, uni mustahkamlash uchun maqsad qo'yish imkoniyatlari, vositalari va usullarini izlash chuqur iqtisodiy ma'noga ega bo'lib, uni amalga oshirish xarakteri va mazmunini belgilaydi" [7].

Tahlil va natijalar. Savdo korxonalarida moliyaviy holat tahlili bu korxonaning moliyaviy hisobotlari asosida moliyaviy barqarorligini baholash, uning faoliyat

samaradorligini aniqlash va kelajakdagi moliyaviy risklarni oldindan ko'rish uchun qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar tizimidir. Ushbu tahlil nazariy jihatdan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- **moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi:** korxonaning buxgalteriya balans, moliyaviy natijalar to'grisidagi hisobot, pul oqimlari haqidagi hisoboti orqali olinadigan ko'rsatkichlar;

- **tahlil metodlari:** vertikal, gorizontallik, moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili (rentabellik, faoliyat samaradorligi);

- **modellar:** moliyaviy holatni baholash uchun iqtisodiy-matematik modellar, indekslar va reytinglar.

Savdo korxonalarida moliyaviy holat tahlilining asosiy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- **pul oqimlari tahlili:** korxonaga kiruvchi va chiqib ketuvchi pul mablag'larining harakatini o'rganish, bu korxonaning likvidligini va to'lov qobiliyatini tushunish uchun muhim;

- **asosiy vositalar tarkibi:** korxonaning asosiy vositalariga (bino, uskunalar va h.k.) oid ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu korxonaning ishlab chiqarish quvvati va aktivlaridan foydalanish samaradorligini baholashga yordam beradi;

- **xususiy kapital harakati:** korxonaning xususiy kapitalining o'zgarishini tahlil qilish, bu uning moliyaviy barqarorligini va egalarining manfaatini baholash imkonini beradi;

- **moliyaviy natijalar:** korxonaning foyda-zararini, umumiy moliyaviy natijalarini tahlil qilish uning faoliyati samaradorligini ko'rsatadi.

Savdo korxonalarida moliyaviy holat tahlilining maqsadi: korxonaning moliyaviy ahvolini aniqlash; korxonaning iqtisodiy faoliyatini to'g'ri baholash; korxonaning kelgusi rivojlanishi uchun strategik qarorlar qabul qilishga yordam berish; mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash.

Savdo korxonalarida moliyaviy holat tahlilining nazariy asoslari korxonaning moliyaviy barqarorligi, likvidlik va rentabelligini baholash uchun standart moliyaviy ko'rsatkichlar va usullarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu tahlil, korxonaning faoliyatini yaxshilash, strategik qarorlar qabul qilish va investorlar uchun xavfni baholash uchun muhimdir.

Savdo korxonalarida **moliyaviy holat tahlil qilishining quyidagi usullaridan foydalaniladi:**

- **gorizontallik tahlil:** ko'rsatkichlarning bir necha davrlar davomida qanday o'zgarganligini o'rganish;

- **vertikal tahlil:** moliyaviy hisobotlarning har bir qatorining umumiy tuzilmadagi ulushini aniqlash;

- **nisbatli tahlil:** ko'rsatkichlar o'rtasidagi nisbatlarni hisoblash va solishtirish;

- **mavzuli tahlil:** korxonaning sanoatdagi boshqa korxonalar bilan solishtirilishi (benchmarking), bu uning samaradorligini baholashga yordam beradi.

Savdo korxonalarida moliyaviy holat tahlili menejerlarga operatsion va investitsiya qarorlarini qabul qilishda, moliyaviy muammolarni aniqlashda va yangi imkoniyatlarni baholashda yordam beradi.

Savdo korxonalarining moliyaviy holatini baholash uchun turli ko'rsatkichlar qo'llaniladi: **likvidlik ko'rsatkichlari**: korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida qoplash qobiliyatini aks ettiradi (masalan, qisqa muddatli aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar nisbati); **rentabellik ko'rsatkichlari**: korxonaning faoliyat samaradorligi va foyda olish qobiliyatini baholaydi (masalan, sof foyda / daromad nisbati); **aylanma kapitali ko'rsatkichlari**: korxonaning operatsion faoliyatining samaradorligini aks ettiradi (masalan, aylanma kapital aylanmasi tezligi); **moliyaviy hisobotlar**: tahlil uchun asosiy manba bo'lgan buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot kabi moliyaviy hisobotlar.

Savdo korxonalarining moliyaviy holatini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar muhim o'rin tutadi. Ular korxonaning likvidligi, barqarorligi, rentabelligi va samaradorligini aks ettiradi. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan moliyaviy ko'rsatkichlar va ularning mazmuni keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Moliyaviy ko'rsatkichlar va ularning mazmuni

Ko'rsatkich nomi	Formulasi	Ma'nosi
Joriy likvidlik koeffitsienti	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	Korxonaning qisqa muddatli to'lov qobiliyatini ko'rsatadi
Tezkor likvidlik koeffitsienti	(Joriy aktivlar – tovar-moddiy zahiralari) / Joriy majburiyatlar	Eng likvid aktivlarga tayanib, qisqa muddatli qarzlarni qoplash qobiliyati
Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	O'z mablag'lari manbalari / Uzoq muddatli majburiyatlar	Korxonaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi darajasi
Xarajatlar bo'yicha rentabellik darajasi	Yalpi foyda x 100 % / Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxi	Korxona faoliyatining rentabelligini ifodalaydi
Aktiv rentabelligi	Sof foyda / Umumiy aktivlar	Aktivlarning foydalilik darajasi

"Parkent universal savdo kompleksi" AJning 2025-yil moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili o'rganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (2-jadval).

2-jadval

"Parkent universal savdo kompleksi" AJda moliyaviy ko'rsatkichlar holati tahlili

Ko'rsatkich	Qiymat	Sharh
Joriy likvidlik koeffitsienti	$1078388,47 / 388128,11 = 2,8$	Qisqa muddatli qarzlarni to'lash imkoniyati yaxshi.
Tezkor likvidlik koeffitsienti	$1078388,47 - 0 / 388128,11 = 2,8$	Likvid aktivlar yetarli darajada
Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	$4852734,20 / 0 = 0$	Moliyaviy barqarorlik yuqori
Xarajatlar bo'yicha rentabellik darajasi	$1708707 \times 100 \% / 11167484 = 15,3$	Yalpi foyda ko'rsatkichi ijobiy
Aktiv rentabelligi	$432978 \times 100 \% /$	Aktivlardan samarali

	5240862,31= 8,3	foydalanilmoqda
--	-----------------	-----------------

Savdo korxonalarida moliyaviy holat tahlili rahbariyatga quyidagi imkoniyatlarni beradi: qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish; moliyaviy resurslarni samarali boshqarish; risklarni oldindan aniqlash va kamaytirish; investitsiyalar samaradorligini oshirish; korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash

Хулоса. Moliyaviy holat tahlilining nazariy asoslari, yo'nalishlari, asosiy elementlari, usullarini bilish, moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish savdo korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim shartlardan biridir. Moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini chuqur tushunish, tahlil usullarini to'g'ri qo'llash va amaliyotda samarali foydalanish korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, moliyaviy holatni muntazam tahlil qilish orqali korxona bozor sharoitlariga moslashib, raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. Toshkent moliya instituti. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. 392 b.
2. Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. Khasanov B.A., Mukumov Z.A., Alikulov A.I., Djumanova A.B., Eshboev U.T., Hasanova R.B. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 28, No. 14, (2019), pp. 42-48.
3. Данелян Э.А. Совершенствование методики оценки финансовой устойчивости и платежеспособности на примере санаторно-оздоровительной организации Краснодарского края / Данелян Э.А., Захарян А.В. // Экономика и предпринимательство. 2017. № 8 -2 (85 -2). С. 952 -955.
4. Чендирова Д.А. Роль финансового анализа в управлении организации / Д.А. Чендирова, О.Ф. Бочарова // В сборнике: Актуальные проблемы современной финансовой науки. Сборник статей международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и преподавателей факультета Финансов и кредита Кубанского государственного аграрного университета. 2019. С. 202-208.
5. Мальцева К.К., Герасименко О.А. Финансовая оценка бизнеса как инструмент повышения его эффективности // The Scientific Heritage. 2021. № 63-3. С. 23-26.
6. Герасименко О.А., Кадыров А.Р. Влияние рисков на эффективность использования оборотных активов сельскохозяйственной организации // Актуальные вопросы современной экономики. - 2019. № 3. С. 162-168
7. Дагужиев Р.А. Перспективы и основные направления развития экономики России в условиях санкций / Захарян А.В., Дагужиев Р.А. // Экономика и предпринимательство. 2016. № 11 1 (76-1). С. 630-633.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

